



O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA XALQARO HAMKORLIKLI RIVOJLANTIRISH TAJRIBALARI VA ISTIQBOLLARI

Abdullayeva Durdona Lutfillo qizi

Annotatsiya. *Zamonaviy o'qituvchilarning asosiy maqsadlari o'quv faoliyatini amalga oshirishning yangi usullarini o'rganish, keng qamrovli tendentsiyalarni tushunish, qabul qilingan talablarni tan olish va talabalarning kognitiv ehtiyojlarini tushunishdan iborat. Maktab ta'limidagi innovatsiyalar tajriba va ijodiy nuqtai nazardan shakllangan o'qitish an'analarini keng tadqiq qilishni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim tizimi, bolalar psixologiyasi, rivojlanish, ta'lim, tarbiya, innovatsion texnologiyalar.*

Mamlakatimizda yurtboshimiz boshchiligida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha qilinayotgan barcha islohotlardan ko'zlangan maqsad – barkamol insonni voyaga yetkazish, yurt istiqbolini porloq qilishdan iboratdir. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini har tomonlama rivojlantirish orqali ta'limning keyingi bo'g'inlari salohiyatni mustahkamlash mumkinligi aniq belgilab berildi. Xususan, yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev maktabgacha ta'lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan edilar:

“Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Aynan maktabgacha ta'lim sohasiga bo'lgan e'tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi”.

Toshkent shahrida kichik yoshdagi bolalarni ta'lim-tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalariga bag'ishlangan jahon konferensiyasi o'tmoqda. 15 noyabr kuni bu anjumanga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashrif buyurdi. Konferensiya 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim sohasidagi siyosatni belgilash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida o'tkazilmoqda. Konferensiyaga YUNESKO Bosh direktori Odri Azule, 150 dan ortiq mamlakatning vazirlari va vakillari, xalqaro tashkilotlar mutasaddilari ham qatnashishmoqda.

Davlat rahbarimiz nutqida, ta'lim sohasidagi dunyodagi holatga e'tibor qaratib, millionlab bolalarning boshlang'ich bilim olish imkoniyati cheklangani, mutaxassislar bilan birgalashib, maktabgacha ta'limni rivojlantirishning ahamiyatini belgiladi. "Inson qadri, uning huquq va manfaatlar - oliy qadriyat" devori asosida aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishning ta'minlanishi ta'kidlanadi.

Shavkat Mirziyoyevning izohlari bo'yicha, ilkinji navbatda, yoshlar va bolalar bilan amaliy hamkorlikni ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy ravishda tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Bolalar o'zlarini to'la rivojlantirishiga odatlangan yashlardan boshlab

kelajakda ularning o'zligini rag'batlantirishga zamin yaratishga qaratilgan. Bu maqsadga yo'naltirilgan investitsiyalarning kelajakda qaytarilishi xavf yo'qligi ta'minlanadi," dedi.

Oldin, maktabgacha ta'lim bilan shug'ullanish darajasining 27 foizga tushib qoldi. Bolalar o'qish uchun zamonaviy vositalarni topa olmay, maktab binolarining ta'mirlashidan mahrum edi. Shu sababli, davlat rahbarimiz bu masalaga alohida e'tibor qaratib, yoshlardan boshlab avlodni rivojlantirish siyosatini belgiladi. O'zbekiston Prezidenti 2017-yil 30-sentabrdagi farmoniga muvofiq, Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Maktab binolarining ta'mirlanishi va rivojlanishi, ilg'or tarbiya usullarini va metodikalarini joriy etishga yo'naltirilgan ko'p masalalar boshlandi.

Sohani rivojlantirish uchun maxsus sektor kirib kelish imkoniyati ham yaratildi. Har bir talaba uchun davlat byudjeti hisobidan subsidiyalar taqsim etilishi qaror qilindi. Minglab oilaviy bog'chalar oliy va o'rta ta'lim muassasalari tashkil etildi.

Natijada, so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalari soni 6 barobarga ko'paydi. Tarbiyachi va pedagoglar soni ham 3 barobarga oshdi va 160 mingga yetdi. Shu bilan birga, 2 million 800 ming nafar boladan 2 milioni maktabgacha ta'lim bilan ta'minlandi.

Davlat rahbarimiz ta'lim tizimi sohasidagi uzviylik masalasiga ham e'tibor qaratdi. Yurtimizdan chiqqan yetakchilar ikki marta uygonish davrini asos solganlariga va kelajakdagi avlodlar uchun ilmga intilishi zarur ekanligini ta'kidladi.

"Yurtimizda Uchinchi Renessansni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida qaror oldik va uning yuzaga kelishini milliy g'oya darajasiga ko'taramiz. Biz maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim tizimini, ilmiy-madaniy muassasalarni Renessansning to'rt uzviy qismi deb hisoblaymiz. Maktab muallimlari, o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni yangi Uyg'onish davriga muvofiq o'rganish uchun to'rtta asosiy yo'l deb ko'ramiz," dedi Prezident.

Bu bilan birga, milliy va xalqaro yutuqlarga muvofiq faoliyatni davom ettirishga yorqin e'tibor qaratilmoqda. Keyinchalik, 2025-yilda maktabgacha ta'limni olib borish darajasini 80 foizga oshirish rejalashtirilgan.

O'zbekiston Prezidenti xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Kichik yoshdagi bolalar uchun sifatli ta'lim muammolarini global darajada hal qilish, tezkor yechimlar va tizimli yondashuvlar ishlab chiqish maqsadida mazkur xalqaro konferensiyani muntazam ravishda o'tkazish taklifi bildirildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladigan barcha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadida, Toshkentda YUNESKOning mintaqaviy markazini tashkil etish tashabbusi ilgari surilgan.

Kichik yoshdagi bolalar ta'limi bo'yicha jahon tashkiloti bilan qo'shma loyiha va tadqiqotlar olib borish, tarbiyaning yangi uslublari va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish uchun keng qamrovli dastur ishlab chiqish zarurati ko'rsatildi.

Sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy interaktiv o'qitish uslublari, amaliy bilim va ko'nikmalar bilan o'zaro almashish maqsadida tarbiyachilar xalqaro hamjamiyatini tashkil etish tashabbusini muhokama qilindi.

BMT tomonidan 2024-yilda o'tkaziladigan kelajak sammitining asosiy mavzularidan biri sifatida, kichik yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish masalasining kiritilishi muhimligi ta'kidlandi. Konferensiya turli mavzulardagi sho'ba yig'ilishlari bilan davom etdi va Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

Xulosa qilib aytganda, yaqin o'tkan yillarda zamonaviy innovatsion IT texnologiyasi, maktabgacha ta'limda to'g'ridan-to'g'ri o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etish uchun keng qo'llanilmoqda. O'qituvchilar, kompyuterlar savodxonligini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan, o'quvchilar uchun keng imkoniyatlarni ochishi mumkin va bu faqat taqdimotlar va o'qitish roliklarini namoyish etish bilan cheklanmaydi. Mahalliy rivojlanayotgan dasturlarning ulkan tanlov sharoitida ota-onalar yoshga to'liq javob beradigan narsalarni tanlash juda qiyin va ta'lim ehtiyojlari ta'minlanadi. Vakolatli fikrni olish bu masala faoliyat uchun maqbul sharoitlarni yaratishga imkon beradi, yoshni rivojlantirish uchun zaruriy narsalarni yaratadilar, ota-onalarning nazarida o'qituvchining nufuzini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://ma'rifat.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar" kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020
2. V.A.Slastenin i dr. «Pedagogika: Innovatsionnaya deyatel'nost'» - M. 1997
3. <http://arxiv.uz> referatlar Tarbiyachining innovatsion faoliyati 2019 yil
4. Ziyamammedov, Bo'ri, Mamarajab Tojiyev. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent. 2009.y
5. "Kitobim-oftobim" Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti, 2008 yil.y
6. Azizxo'jayeva N. N. pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.y